

Davlat satira teatriga tashrif

2021 yilning 15 dekabrda “Yer resurslarini boshqarish” fakultetining 404-guruhi talabalari murabbiy A.Muqumov boshchiligida O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining O‘zbekiston Davlat satira teatriga tashrif buyurdilar.



Teatrda O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov turkum she‘rlari asosida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Tolib Hojiyev tomonidan sahnalashtirilgan “Qarsak chaling...” deb nomlangan bir aktyor teatri badiiy kompozitsiyasi namoyish qilindi. Xonandalar Mirzoxid Otabekov va Shaxnoza Xudoyberdiyevalar ijrosida Abdulla Oripov she‘rlari asosida tayyorlangan qo‘shiqlar ijro etildi.



Ushbu teatrdan talaba-yoshlar juda katta ta`surolar bilan qaytishdi.

Yer resurslarini boshqarish fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo`yicha dekan muovini H.Eshova axboroti